

AXBOROTLASHUV VA YOSHLAR TARBIYASI

Gulbahor Yuldasheva

Fargʻona davlat universiteti

Axborot texnologiyalari kafedrası katta oʻqituvchisi

Mohlarbegim Yoʻldosheva

Fargʻona davlat universiteti

Iqtisodiyot yoʻnalishi 1-kurs magistri

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada globallashuv jarayonida axborotlashuv, OAVning yoshlar tarbiyasiga taʼsiri, uning oʻziga xos jihatlari hamda himoya chorolari muhokama etiladi.*

***Kalit soʻzlar:** Globallashuv, axborot, qadriyat, tarbiya, mafkura, OAV.*

KIRISH

Globallashuv jarayonining oʻziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy taʼsir oʻtkazishning nihoyatda oʻtkir quroliga aylanib, turli siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sogʻlom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar. Jamoa, mahalla tarzida birbiriga mehroqibatli boʻlib yashaydigan xalqimiz davr qanchalik oʻzgarmasin, tarix sinovidan oʻtgan oʻz qadriyatlariga sodiq boʻlib yashashni maʼqul koʻradi. Bu hodisani zamonaviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam toʻgʻri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Axborotlashgan jamiyat kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatikadan oqilona foydalanishga asoslangan sifatli holatini ifodalovchi

tushuncha bo'lib, axborotlashuv jarayoni jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Ommaviy axborot vositalarining hozirgi holati, imkoniyati ma'lumot, axborotning beto'xtov yetkazilishini ta'minlab bermoqda. Ikkinchi tomondan ushbu axborot oqimi vaqt o'tgan sari ko'payib bormoqda. Mazkur oqimda ekstremal, kutilmagan voqeahodisalar, terrorchilik aktlari, ekstremizm borasidagi turli tuman xabarlar berilmoqda. Bu xabarlar ma'lum darajada o'ziga xos axborot tahdidini yuzaga keltirmoqda.

Axborot tahdidi xususida gap ketganda uning universalligi, barcha boshqa sohalarga jiddiy salbiy ta'sir qilish imkoniyatini ta'kidlash lozim. Salbiy jihatlar natijasi shaxs dunyoqarashi, jamiyat barqarorligi, davlat tinchligi, jamoatchilik fikrini chalg'itish va oxiroqibatda har bir mamlakatning ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy yuksalishiga bo'lgan ta'sirlarda ifodalanadi. Chunki turli ma'lumotlar, axborotning jamiyat, tashkilot, oila, shaxs ongiga kirib kelishi jarayoni uncha ham bilinmaydi. Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma'lumotni o'zlashtirish va zararlisini rad etish uchun inson ongi rivojlangan, uning o'zida esa mustahkam iroda, axborot iste'moli madaniyati, mafkuraviy immunitet, yaxshiniyomondan ajrata olish qobiliyati rivojlangan bo'lishi zarur. Mamlakat aholisining barchasi bunday imkoniyatga ega, deyish qiyin. Shuning uchun axborotpsixologik barqarorlikni birinchi o'rinda davlat tuzilmalari xizmatchilari, jurnalistlar, pedagoglar, jamoat tashkilotlari xodimlari va bir so'z bilan aytganda ma'rifatparvar insonlar ta'minlashlari zarur.

Axborotpsixologik xavfsizlik sohasi mutaxassislarining fikrlariga ko'ra, axborot tahdidlarga qarshi kurashning eng maqbul yo'llaridan biri mamlakat o'zini o'zi axborot bilan ta'minlashi hisoblanadi. Albatta, bunday axborot to'liq, sifatli va haqqoniy bo'lishi shart, aks holda jamiyat a'zolari turli destruktiv manbalarga murojaat etadilar va bunga hech kim to'sqinlik qilolmaydi.

Axborot psixologik ta'sir vositasi sifatida juda qudratli kuchga egadir. Shuning uchun mafkuraviy targ'ibot samaradorligi kuchli mamlakatlarning aholisini tanlagan

yo'llaridan og'dirish qiyin kechadi. Axborot psixologik xavfsizlikka tahdidning birinchi manbasi – bu insonning o'zi. Insonda ongning mavjudligi tahdid manbasini ifodalaydi.

Jamiyatimizning turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalardagi ijobiy o'zgarishlar, demokratlashuv jarayonlari shaxsga o'z yo'lini o'zi tanlashi, belgilashi uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Shunday sharoitda ommaviy axborot vositalari oldiga juda katta strategik masalalarni hal etishga ko'maklashish vazifasi qo'yilgandir.

XULOSA VA MUNOZARA

Bugungi globallashuv jarayonlarida axborotlashuvning kengayishi ma'naviy tahdidlarning yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa ma'naviyatni yoshlar ongiga singdirish, inson qalbiga yo'l topishni har tomonlama puxta o'ylangan tizimli ravishda olib borish bu sohadagi faoliyatni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Yoshlar tarbiyasida ma'naviy xavfsizlik masalasi haqida gapirganimizda shuni aytish joizki, tadqiqot mavzusining muhim qirralaridan biri bo'lmish milliy ma'naviy xavfsizlik omillari roli masalasini tadqiq etish muammosi yanada dolzarblashib boraveradi. Yoshlarimizda intellektual salohiyatni yuksaltirish, ulardagi milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini oshirish masalalariga alohida to'xtalish zarur bo'ladi.

Zarur axborotlarga ega bo'lishga intilish – davr talabi. Biroq, axborotlarga ko'r-ko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin etish, G'arbdan kirib kelayotgan “ommaviy madaniyat”ga taqlid qilish aslo mumkin emas. Internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, yoshlarning axloq-odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham kirib keladi. Bularning oldini olish uchun, kishilarda, ayniqsa, yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirib borish lozim.

Bunda quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim:

Birinchidan, yoshlarga hozirgi davrning mafkuraviy manzarasi, sodir bo‘layotgan mafkuraviy tahdidlar va undan ko‘zlangan maqsadlarni tushuntirish zarur.

Ikkinchidan, yoshlarga mustaqillik har doim xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib kelganligi, turli zamonlarda unga qanday erishilganligini milliy davlatchiligimiz tarixidan yorqin misollar bilan anglatish lozim.

Uchinchidan, tarbiya masalasida yurt tinchligi, uning farovonligi, ozodligi uchun jonini ham fido etgan milliy qahramonlarimiz hayotidan namunalar keltirish orqali yoshlardagi vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, yoshlarni milliy ma’naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda milliy o‘zlikni anglashning yuksak darajada bo‘lishiga erishish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qodirov B., Jumaniyozov X., Qodirov B. Globallashuv sharoitida yoshlarda vatan- parvarlik va daxldorlik tuyg‘usini tarbiyalash masalalari. – T., 2015.

2. G.I.Yuldasheva., Z.Oxunjonova (2023). Ta’lim va tarbiya jarayonlarida axborot texnologiyalarining o‘rni. Educational Research in Universal Sciences. Volume 2 (Issue 3), 984-986.

3. G.I.Yuldasheva., M.Otamirzayeva (2023). Ta’lim muhitida axborot texnologiyalarining o‘rni. Международный научный журнал «Научный импульс». № 10(100), 118-121.

4. Г.И. Йулдашева., Г. Йулдашева (2019). Замонавий таълим тизимида Ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг ахамияти. Актуальные вызовы современной науки. Сборник научных трудов. Выпуск 4(36) 74-78.

5. G.I.Yuldasheva (2023). Ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning tutgan o'rni. Golden brain Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1 (Issue 30), 144-147.

6. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M. (2022, September). Axborot xavfsizligiga tahdidlar va ularning oldini olish omillari. International scientific conference

“ Innovative trends in science, practice and education” (Vol. 1, No. 2, pp. 231-236).